

ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIYNING AXLOQIY QARASHLARI (ME'YOR UL-AXLOQ ASARI TASNIFIDA)

Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,
Guliston davlat pedagogika instituti
Abshah.uz1992@gmail.com

ANNOTATSIYA

Istiqlol yillarida xalqimizning yaqin tarixi va boy madaniyatini tiklash, qomusiy allomalarimiz, ulug' avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama keng o'rghanish va targ'ib etish, muqaddas ziyoratgohlarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchillik ila davom ettirilmoqda. Shuningdek, XIX-XX asrlarda O'rta Osiyo hududidan yetishib chiqqan jadid va ma'rifatparvarlarning ilm-fanning aniq, tabiiy, gumanitar sohalari va islom ilmlari bo'yicha yaratgan asarlari tadqiqini kengaytirish va chuqurlashtirish hamda ularni asl matn va ilmiy izohli tarjima shaklida nashr etib, ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish va ilmiy muomalaga kiritish ishlariga alohida urg'u berilgan. Shu tufayli ma'rifatparvar Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy faoliyati va uning "Me'yor ul-axloq" asarini tadqiq etish va o'rghanish, qolaversa uni axloq fanlariga joriy qilish ahamiyatlidir.

Keywords: "Al-Isloh", ma'rifat, ma'rifatparvar, ilm, noshir, sayohatnomा, "Me'yor ul-axloq", ruh, nafs, mental power, supernatural power, sexual power.

KIRISH

Jadid matbuoti haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq 1915 – 1918 yillari to'rt yil mobaynida nashr etilib borilgan "Al-Isloh" jurnali esa deyarli o'r ganilgan emas. Undagi adabiyotning vazifasi, jamiyat hayotiga ta'siri masalalariga bag'ishlangan bahslar hanuzgacha o'z ilmiy bahosini olgani yo'q. Shu bois ushbu jurnalndagi adabiy va ijtimoiy – siyosiy maqolalarni o'rghanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. "Al-Isloh" jadidlarning "Oyna" kabi nufuzli jurnallaridan edi. Jurnal Abdurahmon Sayyoh va Munavvarqori Abdurashidxonovlar tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1915 yil 14 yanvarda Toshkent shahrining O'rda dahasida G.Ya.Yakovlev tipo – litografiyasida dunyo yuzini ko'rdi. 1915 yilgi sonlari shu nashriyotda 1916, 1917, 1918 yillari O.A.Porsev litografiyasida chop etildi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, 1918 yilgi 5 soni Asqarxon Pahlavonov muharrirligida nashr qilingan. 1915, 1916, 1917 yildagilari har bir soni 32 sahifadan, 1918 yilgi sonlari 16 sahifadan iborat bo'lib, bir oyda ikki marta nashr etilgan.[1;32]

Jurnal o'z nomi va maqsadidan kelib chiqqan holda diniy – dunyoviy islohotchilik yo'lini tutdi. Jamiyatda ro'y berayotgan bid'at, xurofotlarni tuzatishga

katta ahamiyat qaratdi. O‘lkada milliy g‘oyalarning tarqalishida muhim vazifani bajardi. Xalqqa islomiy ilmlar haqida haqqoniy tasavvur berish maqsadida Turkiston ulamolari jamoatchiligi tomonidan tashkil etilgan jurnal din tarixi, diniy asos-Qur‘on va hadislarga tayanib, o‘z davri voqeа- hodisalariga shariat talablari nuqtai nazaridan baho berdi. Millatni ma‘rifatga, taraqqiyga da‘vat etdi. Jurnalning chiqishini jadid ziylolilari xursandchilik bilan kutib oldi.

Xo‘sish, jurnal muharriri Abdurahmon Sayyoх kim edi? “Abdurahmon Sayyoх ibn Hoji Muhammad Sodiqov (1879, Toshkent -1918, Qo‘qon) – ma‘rifatparvar, noshir. Arabiston, Turkiya, Hindiston, Yaponiya mamlakatlariga sayohat qilgani uchun o‘ziga “Sayyoх” taxallusini olgan. O‘n yoshida ota-onasi, aka – singlisi bilan Makkaga ketadi, o‘sha yerda oila a’zolarining barchasidan ayrıldi. Keyinchalik Hindistonning Rajpur shahriga kelib, 5-6 yil madrasada tahsil oladi. 1906 yil zargarlik buyumlari bilan savdo qilib, Xitoyga boradi. Xitoydan Manjuriya orqali Buxoroga kelmoqchi bo‘ladi. Ammo Rossiya va Yaponiya o‘rtasida urush borayotgani sababli Yaponiya hukumati uni Mukden shahrida hibsga oladi. Va Port-Artur shahrida saqlaydi. Urush tugagach, Gonkong orqali Hindistonning Kalkutta shahriga yuboriladi. U Bombey shahriga kelib, Rossiya bosh konsuliga murojaat qiladi. Hind, Xitoy, arab, fors, turk tillarini bilgani uchun 1907 yil konsulxonaga ishga olinadi. 1908 yil Toshkentga qaytib keladi va Turkiston harbiy okrugi shtabida ishlaydi”.[2;428] Shu orada Munavvar qori Abdurashidxonov bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, hamkorlikda “Al-Isloh” jurnalini chiqara boshlaydi. 1912-13 yillarda noshir va muallif sifatida islom odob-axloqi, muqaddas shaharlar tarixi, shuningdek, kezib chiqqan mamlakatlari haqida ko‘plab sayohatnomalar chop ettirgan. U “Tarixi islom”, “Tuhfat ul anom tarixi bayt ul-Harom”, “Tarixi izolat ul-g‘ayn an-qissat il-Zulqarnayn”, “Tanvir ul-ahdoq fi makorim il-axloq”, “Me‘yor ul-axloq” kabi asarlar muallifidir. Hamda Hindistondan Faxriddin Roziyoning “Tafsiri kabir” asarini keltirib nashr etgan.[3]

Ta’kidlash kerakki, milliy uyg‘onish davri ulamolari yosh avlodga “ma‘ruf hadis kitoblari va islom ulamolari asarlari” asosida ta‘lim berishga katta xizmat qilgan. Jurnal muharriri Abdurahmon Sayyoх asarlari ayni shu jihatdan ham ahamiyatlidir. Sayyoх asarlari qanday asarlar edi? “Tuhfat ul anom tarixi bayt ul-Harom” asarida Makkai mukarramaning tarixi, geografik iqlimi, islom ma‘rifati va madaniyati rivojida tutgan o‘rni masalalari qalamga olingan. Musulmon olamingning XX asr boshidagi qoloqlik girdobiga tushishi sabablari ochib berilgan. “Me‘yor ul-axloq” asari odob-axloqqa bag‘ishlangan bo‘lib, “Al-Isloh” ma‘lumoticha, ikki bo‘limdan iborat. Har bir bo‘lim yettitadan bobga ajratilgan.

Birinchi bo‘limdagi boblar:

1. Axloqning insonlarga xosligi.
2. Axloqning buyukligi.
3. Axloqning mafhumi.
4. Axloqning fazilati.
5. Axloqning yomonligi.
6. Axloqning yomonlik ta'sirida buzilishi.
7. Yaxshi ahloqning ijro etuvi va yomon axloqning yo'qolishi.

“Tarixi islom” asarida islom dini tarixi, payg‘ambarlar haqida ma'lumot, islom dini haqidagi rivoyatlar bayon qilinadi. Jurnalda yozilishicha, “Tanvir ul-ahdoq fi makorim il-axloq” asari odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, Turkiston shevasida, o‘zbekcha. Ushbu risolada ma'rifat va axloq uyg‘unligi hayotiy misollar asosida ochib berilgan. Odamlarning madaniyat, tijorat va boshqa ishlarida zarur qo‘llanma hisoblangan. “Tarixi izolat ul-g‘ayn an-qissat il-Zulqarnayn” Iskandar Zulqarnaynning hayoti haqida, uning Ya'juj –ma'jujlarga qarshi kurashi, ulardan himoyalanishi uchun qurdirgan devori tarixiga bag‘ishlangan asar. Bulardan tashqari, jurnalda Abdurahmon Sayyoh Faxriddin Roziyoning “Tafsiri kabir” asarini turkchaga tarjima qilib, nashr ettirgan. Unda o‘rganilishi muhim bo‘lgan oltmishta ilmni sanab o‘tadi.[4]

Jurnalning har bir sonida birinchi yoki oxirgi sahifalarda “Isloh” kutubxonasi haqida ma'lumot berilgan. Unda jadid adiblari va shoirlarining asarlari, Qur'oni karim, “ma'ruf hadis kitoblar va islom ulamolari asarlari” mohiyati haqidagi fikrlarni o‘qish mumkin. Kutubxonada maktab va madrasalarga zarur bo‘lgan qog‘oz-qalamgacha bo‘lgan. Kutubxona o‘z davrida katta shuhrat qozongan. Jurnal mushtariylarining kutubxonadan mamnun ekanlari izhoriga bag‘ishlangan maktublari shundan dalolat beradi. Jurnal faoliyati mustamlaka ma'muriyati xizmatining muntazam nazoratida bo‘lgan. Buning natijasida jurnal va uning tahrir hay'ati qoralangan. Binobarin, “Al-Isloh” jurnaliga sho‘ro mafkurasi nuqtai nazaridan baho berilishi ilmiy xolislikka muvofiq emas. Hukmron mafkura ta'sirida hatto Abdulla Avloniy va Cho‘lpon ham jurnal haqida haqiqatga zid fikrlarni aytishga majbur bo‘lgan edi:

“Bu jurnal eski hukumat ayg‘oqchisi hamda Turkistonda bobiy mazhabining bonysi bo‘lgan Abdurahmon Sayyoh tomonidan chiqarilib, bir qancha davom etib to‘xtadi...”[5;16]

Binobarin, jurnal muharriri Abdurahmon Sayyoh va barcha mualliflar bobiy mazhabining Turkistonga kirib kelishiga qarshi chiqib, jurnalning bir necha sonlarida tanqidiy maqolalar chop ettirganlar.

Abdurahmon Sayyoh qalamiga mansub asarlardan biri “Me’yor ul-axloq” asari o‘rta asrlarda yashab o‘tgan islom olamining yirik allomalari ilgari surgan g‘oyalar asosida yozilgan bo‘lib, odob-axloqqa oiddir. “Me’yor ul-axloq” asari 1912 yilda Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida toshbosma uslubida chop etilgan. Ushbu asarning birinchi bobu “ruh bayonida” deb nomlanib, bunda inson ruhiyati haqida alohida to’xtalib o’tiladi: “Ruh- insonning vujudidan tashqarida yashovchi, ammo inson xulqini va faoliyatini boshqaradigan kuch. Ruhda o‘tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingandir. Inson ruhi ham anglanilmagan, ham anglangan xususiyatga ega bo‘lib, anglanilmagan ruh o‘z navbatida hayvon ruhidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega”.

Sharq she’riyatida ishq, irfon, go‘zallik, din va axloq xususidagi qarashlarning bari bir nuqtada birlashadi, bir mavzu doirasida umumlashadi. Bu nafs va ruh masalasidir. Nafs va ruh inson zotida birlashgan, bir-birini to‘ldirib, ayni chog‘da, bir-birini rad etuvchi ikki qarama-qarshi qutb. Nafsa ham, ruhda ham cheksiz qudrat yashirin. Ularning mohiyati hech qachon bir-birisiz ayonlashmaydi. Nafs ruhning mavjudligini dalillasa, ayni chog‘da, ruh ham nafs borligini tasdiqlaydi. Har ikkalasining vazifasi zohiran bir xil bo‘lsa ham, botinan mutlaq farqli. Ayni shu farqlanish asosida, ularning tabiatni, xususiyati namoyon bo‘ladi.

Demak, inson ruhi – ilohiy dam, nafas. Ruhni kamolga yetishtirish insonni malaklarga yetakchi qiladi, aksincha bo‘lsa, ya’ni, nafs quvvatlansa, u shayton tobesiga aylanadi. Xo‘sh nafsning quvvatlanishi qanday sodir bo‘ladi? Nafs qachon kuchga to‘ladi? Birinchi galda, dunyo sevgisi ko‘ngilni egallaganda. Ruh o‘zini bandi qilib turgan zanjirlardan qutulgach, fayz va zavqqa tuyassar bo‘ladi. Bunday holda ruhga hech narsa to‘siq va xavf sololmaydi.[6;10]

Shuningdek Abdurahmon Sayyoh o‘z asarida yana shuni ta’kidlab o’tadi: Inson ikki narsaning majmuidan iboratdir. Ularning birinchisi jism bo‘lsa, ikkinchisi ruh, uni nafs ham deydilar. Jismni ko‘z bilan ko‘rsa, qo‘l bilan ushlasa bo‘ladi. Ruhni esa zohiran his etib bo‘lmaydi. Balki, aql bilan uning siyratiga qarab topish mumkin. Shu sabab ko‘z va ko‘rish kabi zohiriy sifatlar inson jismiga taalluqlidir. Ammo, fe’l-atvor, amallar va odatlar ruhga xos hislatlardirki, ular insonning botiniy surati ko‘zgusidir. Toki, insonning barcha a’zolari mutanosib va barobar bo‘lmas ekan zohiriy husn mukammal bo‘lmaydi. Shundan qiyos qilib aytish mumkinki, insonning fe’l-atvor va hatti-harakatlari me’yorida bo‘lmasa uning botiniy husni mukammal bo‘lmaydi. Yoki aytish mumkinki, u insonning ahloqi yetuk bo‘lmaydi.

About the three powers of the flesh: God created three different powers in the soul, that is, in the soul. These are mental power, angry energy and sexual power. Judges have also agreed on these three forces in the human soul.

Mental Power: Mental power is the power that the mind produces. Differences between different people - good and bad, arise from this power and falsehood. What is involved in this power lies in the human brain, the brain. If the mental energy is moderate, the owner possesses noble, rational, and refreshing qualities, and his words are meaningful. What, though, is more or less normal? Then, if it is too much, its owner characterized by cunning, mischief, cake and envy, and if it is not, its owner will be of a foolish nature.

Supernatural Power: This force applies to both flora and fauna. If this power is moderate, the owner's heart is strong. If it is over, the owner is inclined to follow the shit, and the owner has a weak heart.

Sexual Power: It is such a power that it relates to flora and fauna along with humans. The need for food and other supplies is from this power. [7;1782]

Xullas, Toshkandiy insoniylik sharaifi, qiymati, shaxs kamoloti xususida yozar ekan, nafs va ruh tasvirlariga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, ma'rifatparvarning ushbu asarida ruhning maqom va darajalari, nafs martabalari chuqur yoritilganki, ularni o'rganish biz yoshlarning ta'lif tarbiyamiz uchun foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'ylaymiz, chunki ruhiyati sog'lom yoshlargina buyuk kelajak poydevorlari bo'la olishadi.

Umuman, Toshkandiy milliy uyg'onish davrining boshqa ma'rifatparvarlari qatori millatni asriy jaholat girdobidan olib chiqish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko'tarilishi kabi zamonning eng dolzarb va hech qachon eskirmaydigan vazifasi yo'lida xizmat qildi. Toshkandiy ijodiy faoliyatining o'rganilishi o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti va uning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy manbashunoslik va matnshunoslik hamda milliy jurnalistika sohalari rivojiga muayyan hissa qo'shami, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сирохиддин Аҳмедов. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. Т.: Маънавият, 2003. - Б. 197.
2. Аҳмедов С. Сайёҳ. Ўзбекстон Миллий энциклопедияси. 7-том.- Б. 704.
3. Ал-Ислоҳ, 1915, 11-12-14 сонларида “Янги асарлар” рукнида танишириб борилган.
4. Ал -Ислоҳ, 1915, 17-сонида эълон қилинган.
5. Абдулла Авлоний. Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи. Миллий уйғониш ва филология масалалари. (Нашрга тайёрловчи Шухрат Ризаев.) Т.: Университет, 1993;

- س- ۱۹۱۲ تاشкند. غلام حسن آرғанوف متبوعی .معیار الاخلاق – تاشکندي سیاح عبدالرحمان ۶۵(Абдураҳмон Сайёҳ Тошкандий-Меъёр ул-ахлоқ. Ғулом Ҳасан Оруфжонов. Тошкент, 1912)
7. Asatulloev, A., Shavkatdjon, K., & Gulkhayo, R. (2020). In the twentieth century, turkestan national media outreach ideas published by abdurakhmon sayyoh tashkendy, entitled “rule of law”. *International journal of advanced science and technology*, 29(5), 1781-1784.